

## KONSTITUTSIYA – HAYOTIMIZ FAROVONLIGI VA TARAQQIYOTIMIZ KAFOLATIDIR

*Xamdamov Azizbek Xurshid o'g'li,  
TDYU qoshidagi akademik litsey 2.1-guruhi o'quvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bosh qomusimiz hisoblangan Konstitusiyaning inson hayotida tutgan o'rni, ahamiyati, unda belgilab qo'yilgan huquq va majburiyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о роли и значении Конституции, которая считается нашей основной конституцией, в жизни человека, а также о предусмотренных в ней правах и обязанностях.

**Abstract.** This article provides information about the role and significance of the Constitution, which is considered our main constitution, in human life, as well as the rights and responsibilities provided for in it.

**Kalit so'zlar.** Konstitusiya, qonun, qarorlar, huquq, burch, mas'uliyat, manfaat, huquqiy savodxonlik.

**Ключевые слова.** Конституция, закон, решения, право, обязанность, ответственность, выгода, юридическая грамотность.

**Keywords.** Constitution, law, decisions, right, duty, responsibility, benefit, legal literacy.

**Kirish.** Ma'lumki, har bir davlatning o'z qonunchiligi mavjud bo'lib, uning tarkibiy qismi hukumat tomonidan ishlab chiqilgan meyoriy hujjalalar yig'indisidan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiladigan fuqarolar Prezident farmonlari, Respublika qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, qolaversa bosh qomusimiz hisoblangan Konstitusiyada belgilab qo'yilgan moddalar asosida faoliyat yuritishi lozim. Shuningdek, davlat va jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun tuzilgan konsepsiylar, strategiyalarning ham o'z o'rni bor. Jumladan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida

inson qadri uchun 100 maqsad belgilangan bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad, "Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash"<sup>1</sup> dan iborat. Insonning yashashi davomida qanday sohada faoliyat yuritishi, qanday tartibda hayot kechirishidan qat'iy nazar, barcha huquq va vakolatlari, burch va mas'uliyatlari hisobga olingan. Shuningdek, 14-maqsadda, "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash"<sup>2</sup> ta'kidlab o'tilgan. Darhaqiqat, mamlakatning farovon va tinch bo'lishi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi undagi qonun ustuvorligi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

### **Asosiy qism.**

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi har bir sohada taraqqiy etib borishi bilan birga turli yo'nalishlar bo'yicha jahon andozalariga mos holda rivojlanib bormoqda. Masalan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi har bir fuqaroga sezilarli darajada qulayliklar yaratib, ortiqcha ovoragarchiliklar, vaqt sarfining oldini olmoqda. Hatto bu boradagi huquqiy asoslar ham qonun asosida nazoratga olinadi. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30-apreldagi yangilangan Konstitusiyasining 72-moddasida ta'kidlanishicha, "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi"<sup>3</sup>. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasining konstitutsiyaga bag'ishlangan 14-maqsad, 3-bandida aholining farovon yashashi uchun ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish, ushbu yo'nalishda boshlangan islohotlarni o'z vaqtida yakuniga yetkazish masalasi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" ruh PF-60 son Farmoni. 28.01.2022 yil

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" ruh PF-60 son Farmoni. 28.01.2022 yil

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yangi tahriri, 30.04.2023 yil

e'tiborga olingan. Natijada, konstitusiyaviy mezonlar jamiyatdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlab boradi, keljakda ularga jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillarining tili, dini, urf-odatlari va an'analaridan qat'iy nazar ularning huquqlari tengdir va bu konstitusiyaviy himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlatning mustaqil-demokratik qomusi hisoblanadi.

So'nggi yillarda davlatimiz yoshlarining aksariyat qismi o'zining bilimi, tafakkuri, keng dunyoqarashi va ilmiy salohiyati bilan dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallab kelmoqda. Ularning erkin bilim olishi, farovon yashashi, yaratilgan imkoniyatlardan foydalana olishi va keljakda munosib kadr va malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga asosiy sabab konstitusiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligidir. Ba'zan oliy ma'lumotli bo'lish bilan munosib ish o'rniga ega bo'lish qiyin, ish haqi va oylik maosh yetarli darajada bo'lmaydi, degan fikrlarni eshitib qolamiz. Aytish mumkinki, oliy ma'lumotga ega shaxs hech bo'limganda, burchi va mas'uliyatini anglaydi, oilasi, farzandlarigi tarbiya berishda ijobiy yondashadi, gohida uchrab turadigan yot g'oyalardan uzoqda yashaydi, ilmiy salohiyati o'sadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Qolaversa, bilimsizlik va konstitutsiya va boshqa qonunlarning mohiyatini anglab yetmaslik nafaqat insoniyatni, balki jamiyatni ham jar yoqasiga olib kelishi mumkin. Chunki, xalqi boy davlat ham boy bo'ladi. Bunda ma'naviy va axloqiy nazarda tutilgan.

Boshqa millat va elat vakillarida kam uchraydigan insonparvarlik, mehmondo'stlik, mehr-oqibatlilik, odamiylik kabi yuksak fazilatlar ham qonunchiligidizda o'z aksini topgan. Xususan, Prezidentimiz tomonidan adashib jinoyat yo'liga kirib qolgan bir qancha fuqarolarning avf etilishi, ularga berilgan jazolarning yengillashtirilishi mehr-oqibat va bag'rikenglikdan nishonadir.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytish mumkinki, hamiyatdagi o'zgarishlar yillar o'tgan sayin kengayib, takomillashib boraveradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsianing

yangi tahrirda qayta ishlab chiqilishi ham bejizga emas. Unda jamiyat va davlat taraqqiyotiga turtki beruvchi g'oyalar, rejalar, strategiyalar o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Qabul qilingan konstitsiyada eng avvalo, millatimizning yillar davomidagi tarixiy an'analar, milliy tafakkuri va madaniyati o'z aksini topgan.

Qolaversa, bosh qomusimiz jahon hamjamiatining inson huquqlari borasidagi katt-katta yutuqlarini o'zida mujassam qilgan. Jumladan, insonning farovon yashashi, erkinliklari va shaxsiy daxlsizlik huquqi, mulkka egalik qilish huquqi kabilarni o'z ichiga olgan. Ushbu muhim yuridik hujjat, milliy mafkuramizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asosini tashkil etuvchi umuminsoniy g'oyalarga xizmat qilishi bilan e'tiborli sanaladi. O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy salohiyatini taraqqiy ettirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanishi lozim. qolaversa o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg'ularini singdirish, Konstitusiyamiz va boshqa qonunlarga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash har bir fuqaroning asosiy burchi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yangi tahriri, 30.04.2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 son Farmoni. 28.01.2022 yil
3. <http://econferences.ru/index.php/dis/article/view/9172>
4. <https://constitution.uz>.
5. <https://lex.uz>.
6. <https://uz.m.wikipedia.org>.
7. <https://www.uzairways.com>